

**ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI>>DARSLIKALARIGA KIRITILGAN  
ERTAKLARNING O'ZIGA XOSLIGI**

**Obloberdiyeva Mexrubon Faxritdinovna**

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat Universiteti Maktabgacha va  
Boshlang'ich ta'lim fakulteti 4-kurs talabasi.*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqola o'quvchilarining ona tili va o'qish fanlaridan savodxonligini oshirish, o'quvchilar ongli tushunishi, asosiy mazmunini, g'oyasini anglab yetishi uchun analiz, sintez, taqqoslash, umumlashtirish kabi mantiqiy usullar bo'yicha fikr yuritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *xalq og'zaki ijodi, ertak, ona tili va o'qish savodxonligi, o'quvchilar savodxonligi, nutqiy savodxonlik, boshlang'ich ta'lim, og'zaki hikoya, to'g'riso'zlik, halollik.*

Yurtimiz kelajagi bugungi avlodning qanday ta'lim olayotganiga, bo'lajak yetuk kadrlarga berilayotgan bilimlar qanday samarali usullar bilan yetkazilayotganiga bog'liq. Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek "Bugungi dunyo yoshlari - son jihatidan butun insoniyat tarixidagi eng yirik avloddir, chunki ular 2milliard kishini tashkil etmoqda. Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liqdir". Shunday ekan, kelajak egalariga berilayotgan bilimlarning mukammal, puxta, izchil hamda o'quvchining yoshiga mos bo'lishiga ahamiyat qaratish lozim. O'sib borayotgan bolalar kelajak avlodlaridir ular yetuk va teran fikrlovchi bo'lishi uchun "ertak" kitoblarga mehr qo'yishi joizdir. Ertak kitoblarda mehr-muhabbatli, qalbi pok, rostgo'ylikka undaydi.

Darhaqiqat, "Ertak" — xalq og'zaki poetik ijodining asosiy janrlaridan biri hisoblanadi. Bolalarni to'gri yo'lga chorlovchi va rivojlantirishga yordam beradi. Shuni ham aytish kerakki, 2021-2022- o'quv yilidan boshlab joriy etilgan „Ona tili va o'qish savodxonligi” darsligi ham xuddi shunday tamoyilga asoslanadi. Yangi darslikning birinchi sinf doirasidagi mavzulari, bo'limlari va hattoki sinflar kesimidagi bo'limlari ham integratsiyalashgan bo'lib, bularning barchasi o'quvchilarning fan doirasidagi bilimlarini shakllantirishga, fikrlash qobiliyatini kengaytirishga hamda og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishga qaratilgan. Bolalarning ma'naviyatini ham boy qilish kerak, ularga turli xildagi ertaklar emas balki ongni o'stiruvchi ertaklarga qiziqtirish joizdir.

Shuningdek, ertak janrining bolalar tomonidan yaxshi qabul qilinib, qiziqib o'qilishining sabablaridan biri ertak tilining ta'sirchanligi, o'tkirligi, ma'nodorligi va xalq tiliga yaqinligidir. Ertaklarning ko'pchiligidagi real hayat tasviri sarguzasht elementlar bilan qo'shilib ketadi.

Ertakning o'tkir maroqli syujeti, voqea rivojidagi favqulodda ajoyib vaziyat bolalarni maftun qiladi, undagi mard, kuchli, topqir, dovyurak, chaqqon qahramonlar, ertakning g'oyaviy yo'naliishi, unda ezgulik kuchining – yaxshilikning doimo g'alaba qilishi bolalarni o'ziga tortadi. Ertakda qabul qilingan hikoya qilish shakli bir xil so'z va iboralarning qayta-qayta takrorlanib turishi, ohangdorligi, tilining ta'sirchanligi, ifoda vositalarining jonliligi, bolalar uchun juda qiziqarliligidir. Ertakda qatnashuvchilar ko'pincha rahmdil, saxiy, adolatli hamda ularning aksi bo'lgan yovuz, baxil, ochko'z obrazlar bo'ladi.

Ertakning pedagogik qiymati shundan iboratki, o'quvchilar unda to'g'rilik, halollik g'alaba qilganidan, kambag'al kishilar qiyinchilikdan qutilganidan, ya'ni yaxshilik, ezgulik ro'yobga chiqqanidan va yomonlik, yovuzlik mahkumlikka uchraganidan quvonadilar. Ular hayotda ham doimo shunday bo'lishini istaydilar. Masalan, «Chumolining jasorati» (1-sinf „Ona tili va o'qish savodxonligi”) ertagida chumolining o'z vataniga bo'lgan muhabbat va mehnatkashligi hikoya qilingan bo'lsa, «Kuchukmi yoki itcha» (2-sinf, „Ona tili va o'qish savodxonligi”) ertagida bobo nabirasiga hayvonlarni nomlarini tanishtirib bergani aks etgan. Ertak g'oyasiga mos xulosa esa «Boshingga qilich kelsa ham to'g'ri gapir» maqoli bilan ifodalangan. «Halollik» ertagida (3-sinf) asosiy fikr kambag'allarga yordam ko'rsatish, o'z mehnati bilan hayot kechirish bo'lib, bu hatto butun xalq istagi ekanligi g'oyasi ilgari surilgan bo'lsa, «Hiylagarning jazosi» ertagida (4-sinf) soddadilning to'g'riliqi hiylagarning makri ustidan g'olib kelishi, xiyonat jazosiz qolmasligi g'oyasi ilgari surilgan. Har ikki ertak ham to'g'riso'zlilikning g'alabasi bilan yakunlanadi.

Ertak ustida ishslashda bolalarni ertakni o'qishgagina emas, balki uni aytib berishga o'rgatish ham muhimdir. Ertak aytish og'zaki nutqni o'stiradi, bolalar nutqini yangi so'z va iboralar bilan boyitadi.

Ertakni o'rganish darslarining qurilishi quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. Ertak bilan tanishtirish:

- a) o'quvchilarni ertakni idrok etishga tayyorlash;
- b) o'qituvchining ertakni ifodali o'qishi, yod aytib berishi va hokazo.

2. Ertakni o'quvchilar qay darajada idrok etganliklarini aniqlash maqsadida qisqacha suhbat o'tkazish;

3. Ertakni qismlarga bo'lib o'qish va tahlil qilish; undagi ayrim tasviriy vositalar, ma'nodosh so'zlarni topish, lug'at ishi (ayrim so'zlar ma'nosini tushuntirish);

4. Ertakni aytib berishga tayyorlanish (ichda o'qish);

Xulosa qilib aytganda, hayotda o'z o'rningni topish va maqsadli bo'lish har bir insonning o'z qo'lidadir. Bolalar tog'ri so'z bo'lishi yaxshilik va yomonlikni ajrata olishi, hurmat qilishni ertak kitoblardan o'qib olishi mumkin Shuni alohida ta'kidlash joizki, hozirgi asr texnologiya asri bo'lganligi tufayli bolajonlar kitoblardan uzoqlashib bormoqda, ular tayyor multimedialar, multfilmlarga qiziqmoqdalar. Shu nuqtai nazardan, yurtimizda kitobxonlikni oshirish maqsadida yurtboshimiz tomonidan „Yosh

kitobxon”ko’rik tanlovi joriy qilingan. Bu dastur bolalarni kitobga bo’lgan muhabbatini oshiriruvchi vosita bo’lib xizmat qiladi desam mubolag’a bo’lmaydi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo’limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko’taramiz.//Toshkent - 2017, “O’zbekiston”, 593 b 2. Qosimova K. Boshlang’ich sinflarda ona tili o’qitish metodikasi. - Toshkent: “O’qituvchi”, 1985. –B. 216. 3.Iroda Azimova , Klaraxon Mavlonova, Sa’dullo Quronov, Shokir Tursun ,, Ona tili va o‘qish savodxonligi 1-sinf” . Toshkent -2021 4.Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sa’dullo Quronov, Shokir Tursun ,, Ona tili va o‘qish savodxonligi 2-sinf” . Toshkent -2021